

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR
INSTITUTI
Roman-german filologiyasi fakulteti**

Nemis filologiyasi kafedrası

MUSTAQILISH

MAVZU: PASSIVNING NEMIS TILIDA QO'LLANILISHI

Bajardi: Hamroqulov Firdavs
Tekshirdi: Ko'chiyev Malik

Samarqand 2014

PASSIVNING NEMIS TILIDA QO'LLANILISHI

Passiv nisbat ham aniq nisbat ega bo'lgan barcha zamonlarga ega. Oltita zamon formasi, infinitiv I va infinitiv II formalariga ega. Biroq majhul nisbatning barcha zamon shakllari qo'shish orqali yasaladi. Passiv shuning uchun ham analitik formadir.

1. Präsens Passiv: Ich werde gefragt.
2. Imperfekt Passiv: Er wurde gefragt.
3. Perfekt Passiv: Er ist gefragt worden.
4. Plusquamperfekt Passiv: Er war gefragt worden.
5. Futur I Passiv: Er wird gefragt werden.
6. Futur II Passiv: Er wird gefragt worden sein.

Werdenning infinitiv formasiga mustaqil fe'lning sifatdosh II formasi qo'shilishidan Passivning infinitiv I formasi yasaladi: **geschrieben werden**.

Passivning infinitiv II formasi **Werden** ning aktivdagi infinitiv II hamda mustaqil fe'lning sifatdosh II formasining qo'shilishidan hosil bo'ladi: **geschrieben worden sein**.

Aktiv va Passiv o'rtasidagi farqni quyidagi misollar orqali anglashimiz mumkin.

Sie schrieb diesen Artikel. U maqolani yozdi.

Dieser Artikel wurde von ihr geschrieben. Maqola u tomondan yozildi.

Nemis tilidagi fe'lning passivga oid bo'lgan olti zamon formalarining futurum II formasidan boshqa prezens, präteritum, perfekt, plusquamperfekt va futurum I zamon formalari o'zbek tili majhullik nisbati bilan mos tushadi. Lekin ularning grammatik formalari va ifoda etish yo'llari bir-biridan farq qiladi. Nemis tilining passiv zamon formalarida qo'llanadigan **werden** yordamchi fe'li hamma zamon formalarida o'zgarib boradi: **wird geschrieben, wurde geschrieben, ist geschrieben worden, war geschrieben**

worden, wird geschrieben werden.

Zamon ham asosan shu ko'makchi fe'l formasi bilan belgilanadi.

Mustaqil fe'lning sifatdosh II formasi (**gebaut, geschrieben, gefragt**) o'zgarmay qolaveradi.

O'zbek tilida majhullik nisbatida harakat to'ldiruvchi anglatgan predmet tomonidan bajarilib, egaga o'tadi yoki haqiqiy bajaruvchi noma'lum bo'ladi. Fe'l negiziga **-l,-il,-in,- n** qo'shish bilan ,ya'ni *borildi, olindi, so'raldi, o'qildi* kabi yasaladi.

O'zbek tilida majhullik nisbati yasovchi affiks **-(i)l,-(i)n** hamma zamon formalarida o'zgarmaydi.

Dieser Artikel wurde von ihm geschrieben. Bu maqola uning tomonidan yozildi.

Dieser Artikel ist von ihm geschrieben worden. Bu maqola uning tomonidan yozilgan.

Nemis tilida nisbat kategoriyasi hamma fe'llarga xos bo'lmay, faqat o'timli fe'llargagina xos. Aktiv esa hamma fe'llarga xos. Stativ va Passiv hamma fe'llarga xos emas. Lekin, ba'zi o'timli fe'llardan Passiv yasab bo'lmaydi. Bular:

Olish ma'nosini anglatuvchi fe'llar: **erhalten bekommen, kriegen, erfahren**

Egalik ma'nosini bildiruvchi fe'llar: **besitzen, haben, behalten**

Hisob-kitob ma'nosini bildiruvchi fe'llar: **kosten, wiegen, enthalten, zählen**

Bilish ma'nosini anglatuvchi fe'llar: **wissen, kennen, interessieren, enthalten**

Shaxssiz fe'llar: **es gibt ein Stadion, es friert, schaudert, hungert, dürstet, wundert mich.**

Majhul nisbatning har ikki tildagi ma'no xususiyati shundan iboratki, bu nisbat yordamida o'timli fe'llarda haqiqiy obyekt

vazifasidagi soʻz grammatik jihatdan ega vazifasini oʻz zimmasiga olgani koʻrsatiladi.

Der Brief wurde geschrieben. Xat yozildi.

Ikki stilistik sohada berilgan qonun-qoidalaridan cheklanish boʻladi, yaʼni, bu ilmiy adabiyot va badiiy adabiyotlarda ham kuzatiladi. Bularda **erhalten** feʼli Passivda qoʻllaniladi:

Durch diese Reaktion werden neue Stoffe erhalten.

Baʼzi vaqtlarda oʻtimsiz feʼlardan ham passiv yasaladi.

Sport tilida **laufen, schwimmen** feʼllarini Passivda uchratish mumkin. Ular Aktivda Akkusativ bilan bogʻlangan boʻladi.

Das waren die besten Zeiten, die je auf der Welt gelaufen wurden (die beste Zeit laufen).

Nasriy adabiyotda Passiv quyidagicha qoʻllaniladi:

Wer nicht will, der wird gewollt. Ich wurde getanzt. Eine Dame holte mich.

Passivdagi gap konstruksiyasining qoʻllanilish doirasi turli funksional nutq stilida bir xil emas: Proza va publisistikada passivdagi gap konstruksiyasi **man** bilan qoʻllanadigan noaniq shaxs gaplariga nisbatan koʻproq ishlatiladi.

Nemis tilida uchta passiv konstruksiya mavjud: Bir boʻlakli passiv konstruksiya (eingliedriges Passiv) ikki boʻlakli passiv konstruksiya (zweigliedriges Passiv), uch boʻlakli passiv konstruksiya (dreigliedrige Passiv).

Ikki boʻlakli passiv konstruksiyaning qoʻllanilishi va maʼnosi

Harakat obykti bilan harakat oʻrtasidagi aloqa ifoda etiladi:

Eine Anzahl von Häusern wurde zerstört. Maʼlum miqdordagi uylar buzildi.

Ikki boʻlakli passiv konstruksiya xuddi uch boʻlakli passiv

konstruksiya kabi oddiy, faqatgina bajaruvchi aniq emas. U 2 xil vazifani bajaradi:

- a) aytilgan fikrdan bajaruvchining cheklanishi
- b) gap egasiga harakatning yo'nalganligi

U quyidagi holatlarda qo'llaniladi;

1. Bajaruvchi noaniq bo'lsa, u konkret berilmagan bo'lsa. *Dieses Gebäude wurde im 17. Jh. gebaut. Plötzlich wurde er gestossen.*

2. Bajaruvchini ma'lum bir sabablarga ko'ra atash mumkin bo'lmasa:

Ich bin heute eingeladen worden.

3. Bajaruvchi ahamiyatsiz bo'lsa:

In der DDR werden die Läden um 6 geschlossen .

4. Bajaruvchi umumiy ma'noga ega bo'lsa:

Das Leben, das er nicht verstand und in dem er nicht verstanden wurde (W. Borchert).

5. Bajaruvchini aniq atab bo'lmasa:

Bei der Eisenbahnkatastrophe wurden zwei Wagen beshädigt und mehrere Personen verletzt.

6. Bajaruvchini matn orqali aniqlanib bo'lsa:

Dieses Thema wird im Kapitel 5 erörtert (vom Verfasser).

Ikki bo'lakli passiv konstruksiya o'rniga quyidagi strukturalar qo'llanilishi mumkin. Bu strukturalar Aktivda qo'llaniladi. Lekin passiv ma'nosini beradi.

1. Man+Aktiv:

Der Lesesaal wird um 9 geschlossen-Man schließt den Lesesaal um 9.

2. So'z birikmasi:

bekommen, erhalten, kriegen+Akkusativ predmet+sifatdosh II

Eine Puppe wurde dem Mädchen geschenkt.

Das Mädchen bekam eine Puppe geschenkt.

Bu struktura juda kamdan-kam holatlarda passiv bilan almashinadi. Gapning egasi aynan to'ldiruvchi bo'lmaydi, balki harakatni qabul qiluvchi hisoblanadi. Bajaruvchi ham passivda xuddi shunday.

3. Fe'l va o'zlik olmoshi:

Die Tasche wurde gefunden.

Die Tasche fand sich.

4. Lassen+sich+infinitiv:

Die Tür kann geöffnet werden.

Die Tür läßt sich öffnen.

5. Sein + zu + infinitiv:

Dieser Artikel kann ohne Wörterbuch übersetzt werden.

Dieser Artikel ist ohne Wörterbuch zu übersetzen.

6. -bar,-lich qo'shimchali sifatlar:

Deine Handchrift kann nicht gelesen werden. Deine Handchrift ist unleserlich

7. Iborali birikmalar:

Der Wunsch wurde erfüllt. Der Wunsch ging in Erfüllung.

Uch bo'lakli passiv konstruksiyaning qo'llanilishi va ma'nosi

Unda ham harakat ijrochisi, ham harakat obyektı ifoda etilib, uning oldida **von, durch** predloglari ishlatiladi.

Von predlogining qo'llanilishi.

a) **Shaxsni bildiruvchi so'zlar oldidan** (Botshaft, Gewerkshaft, Betrieb, Gericht, Firma, Kongreß, Ministerium, Partei, Parlament, Tagung, Presse);

Der Vorshlag wurde von der Firma abgelehnt.

b) Hayvon jonzotlar oldidan;

Der Dobermann wurde von dem Schäferhund geschlagen.

c) Ovoz-tovush, hissiyot ma'nosini anglatuvchi so'zlar, aktiv bajaruvchi bo'lsa;

Sie wurde von einer tiefen Unruhe ergriffen.

d) Tabiat hodisalari oldidan; Bu holat jonlantirishga o'xshab ketadi. (*Sonne, Mond, Blitz, Donner, Erdbeben, Lawine, Nebel, Schnee, Regel va boshkalar*).

Das Zimmer wurde von der Sonne hell beleuchtet.

e) Narsa predmet aktiv bajaruvchi bo'lsa:

Der Hund wurde von einem Auto überfahren.

Durch predlogining qo'llanilishi

a) harakatda vositachi kabi ishtirok etgan shaxs oldidan:

Die Nachricht wurde durch einen Boten befördert.

b) hayvon-jonzotlar oldidan:

Er wurde durch eine Katze aus seinem Grübeln gerissen.

c) notirik organizmlarni anglatuvchi otlar oldidan:

Durch die Explosion wurde großer Sachschaden angerichtet.

Ko'pincha ish-harakat jonli predmet tomonidan bajarilsa, **von**, jonsiz yoki abstrakt predmetlar orqali amalga oshsa, **durch** qo'llaniladi, ba'zi vaqtda predloglarni almashtirish bilan ma'no o'zgarmaydi.

Das Gebäude wurde von einer Bombe (durch eine Bombe) zerstört. Bino bomba bilan buzildi.

Ba'zi vaqtda 2 predlog bir gapda qo'llanilishi mumkin.

Das Gebäude wurde von den feindlichen Truppen durch eine Bombe zerstört.

blockieren decken, schützen, sichern va boshqa fe'llardan keyin 2 ta predlog ham qo'llanilishi mumkin.

von der Mauer geschützt, durch die Mauer geschützt.

Predlog yordamida harakatning bajaruvchisi ko'rsatiladi. Bunga isbot sifatida Passivni Aktiv ga transformasiya qilish orqali ko'rsatish

mumkin.

Die Frage wurde vom Lehrer wiederholt.

Der Lehrer wiederholte die Frage.

3 kurs bo'lakli passiv konstruksiyasi o'rniga quyidagi strukturalarni qo'yish mumkin.

a) otli birikma

Die Waren wurden durch die Post befördert.

Die Beförderung der Waren durch die Post.

b) kriegen,bekommen,erhalten fe'llari

Ein Fahrrad wurde von seinen Eltern geschenkt

Der Junge bekommt ein Fahrrad von seinen Eltern geschenkt.

s) lassen

Er läßt sich von niemandem befehlen.

**Bir bo'lakli passiv konstruksiyaning qo'llanilishi va
ma'nosi**

Uning xususiyati shundan iboratki, u faqat o'timli fe'llardangina emas, balki o'timsiz fe'llardan ham yasaladi.

Drei Tage und drei Nächte wurde gekämpft.

Passivga ega bo'lmaydigan **altern, aufblühen, entstehen, gedeihen, zerbröckeln, glimmen, fließen, funktionieren** kabi ba'zi fe'llar subyektning aktiv belgilarini ko'rsatmaydi. Bu faqat aktiv "ish-harakat" ma'nosini anglatgan fe'llargina passiv formasiga ega bo'ladi.

Bir bo'lakli passiv konstruksiya shu formaning umumiy xususiyatlaridan biriga asoslanadi, ya'ni gapdagi ijrochi haqida hech qanday xabar bermay faqat ish-harakat to'g'risida darak anglatadi.

Hier wird ein Stadt gebaut. Dort wird nicht geheizt.

Bu misollardan anglashiladiki, bir bo'lakli passiv konstruksiyasida asosan ish-harakat ifodalanib subyekt haqidagi

ma'lumot belgilanmaydi.

Nemis tilida bir bo'lakli passiv konstruksiyasi qatorida subyektni ko'rsatmaydigan **man** noaniq olmoshi bilan ishlatiladigan aniq nisbatdagi forma ham bor.

Man heizt hier nicht.(Aktiv)

Hier wird nicht geheizt.(Passiv)

Man baut viel in Moskau.(Aktiv)

In Moskau wird viel gebaut (Passiv)

Bu sinonimlar ichida man konstruksiyaligi shaxsga eng yaqini, ya'ni ish-harakatning bajaruvchisi bilan ham bog'liqdir. Ikkinchisi esa birinchi konstruksiyaga nisbatan turg'un xususiyatga ega emas. Uchinchisi o'zlik fe'l konstruksiyasi ma'noni butunlay anglatmaydi.

Og'zaki nutqda ba'zan o'zlik fe'lining passiv formasi shaxssiz formada qo'llanilishi mumkin. Bunda gap **es** bilan boshqariladi. Agar gapdagi **es** o'rniga biror boshqa so'z qo'llanilib, gap u bilan boshqarilsa **es** tushib qoladi.

Es darf geraucht werden. Hier darf geraucht werden.

Uning o'rniga quyidagi strukturalar qo'llaniladi:

1. es + Aktiv

An die Tür wurde gepocht. Es pochte an die Tür

2.Man shaxssiz olmoshli gaplar aktivda:

Es wird tüchtig gearbeitet. Man arbeitet tüchtig.

Stativ Passivning yasalishi

Boshqalariga qaraganda kamroq qo'llaniladigan passiv formasidan biri bu- Stativ (das Zustandpassiv-Holat passiv)dir. Bu forma sein+ Sifatdosh II shakli orqali yasaladi, shuning uchun uni sein+Passiv deb ham aytishadi¹. Flämig "Stativ

¹ Schendels E.I. Deutsche Grammatik.- M.: Высшая школа, 1988. -S. 63

passiv jaroyon passividan farq qilib jarayonni emas, balki holatni, ya'ni jarayonning natijasini ifodalab keladi “- degan fikrni bildiradi².

Der Brief ist geschrieben —Xat yozilgan.

Der Brief wird geschrieben —Xat yozilyapti.

Stativ ham Passividek oltita zamon formasiga ega. U ham analitik forma sanaladi.

Pärsens: *Das Haus ist zerstört.*

Präteritum: *Das Haus war zerstört.*

Perfekt: *Das Haus ist zerstört gewesen.*

Plusquamperfekt: *Das Haus war zerstört gewesen.*

Futur: *Das Haus wird zerstört sein.*

Futur II: *Das Haus wird zerstört gewesen sein.*

Helbig va Buschalar ta'kidlaganidek „Stativ nafaqat aktivdan, balkim jarayon passividan ham yasaladi“³. Bunda eng avvalo biror bir ish bajariladi va buning natijasida yangi bir holat ifodalanadi. Masalan, *Das Fenster wird geöffnet. Das Fenster ist geöffnet.*

Stativning ma'nosiga ko'ra ikkiga ajratishadi.

1.Stativning tugallanmagan shakli, ya'ni durativ Stativ davom etayotgan holatni ifodalaydi. Stativning bu turi quyidagi payt hollarini qo'llash bilan yasaladi: **seit ... Tagen, längere Zeit, stunden-, tage-, jahrelang** va boshqalar.

Das Fenster ist stundenlang geöffnet.

Das Geschäft ist seit drei Tagen geschlossen.

2.Ish harakatning tugallanganligini ifodalovchi shakli perfektiv Stativ(das perfektive Stativ)dir. Bunda nafaqat payt holi, balkim ish harakatning tugashiga ham alohida urg'u beriladi.

Die Ausstellung ist schon geschlossen.

Die Bücher sind bereits verkauft.

² Sara Valkama-Ikonen. Zum Begriff Passiv im Deutschen.-Marrasku, 2002, -S. 17

³ Helbig, Buscha. Deutsche Grammatik. Leipzig, 1998, -S. 175

Bundan tashqari Stativ nachdem, als bog'lovchili payt ergash gapli qo'shma gaplarda payt ma'nosini ham beradi.

Nachdem die Kinder zu Bett gebracht sind, erörtern Frau Wolfsohn und Frau Ehrenreich Dine des Haushalts.

Schendels Stativni funksiyasiga ko'ra quyidagi strukturaga yaqin turishini ta'kidlaydi:

a) ot kesimga:

Das Land ist befreit.- Das Land ist frei.

Ihr Haar ist gelockt.- Ihr Haar ist lockig.

b) perfekt va pluskvamperfekt passivga:

Die Bücher sind verkauft.- Die Bücher sind verkauft worden.

Die Ausstellung ist geschlossen.-Die Ausstellung ist geschlossen worden.

Ma'lumki, Passiv fe'lining hamma turidan yasab bo'lmaydi. Ularda ayrim cheklovlar mavjud bo'ladi:

Olish ma'nosini anglatuvchi fe'llar: **erhalten bekommen, kriegen, erfahren.**

Egalik ma'nosini bildiruvchi fe'llar: **besitzen, haben, behalten.**

Hisob-kitob ma'nosini bildiruvchi fe'llar: **kosten, wiegen, enthalten, zählen.**

Bilish ma'nosini anglatuvchi fe'llar: **wissen, kennen, interessieren, enthalten**

Shaxssiz fe'llar: **es gibt ein Stadion, es friert, schaurdert, hungert, dürstet. wundert mich.**

O'timsiz fe'llardan: **gehen, laufen, sterben, landen, entstehen** v.b.

Lekin agarda gap aktiv ish harakat to'g'risida borsa, aktantlarsiz bu fe'llarning ayrimlaridan Passiv tuzish mumkin (Buyruq gaplarda: Jetzt **wird** schneller **gelaufen!**).

Sich o'zlik fe'llaridan: **sich waschen, sich erholen, sich interessieren** v.b.

Lekin ayrim hollarda, badiiy adabiyotlarda ushbu qonuniyatlar buzilishini ko'rish mumkin.

